

## O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI INGLIZ TILI DARSLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH

*Nosirov Ozodbek G'ulom o'g'li*

*Samarqand viloyati Narpay tumani Maktab va mакtab ta'lifi bo'limi*

*52-sonli umumta'lif mакtabi 2-toifali ingliz tili o'qituvchisi*

*Teshayeva Sevara Zafarjon qizi*

*Samarqand viloyati Narpay tumani Maktab va mакtab ta'lifi bo'limi*

*36-sonli umumta'lif mакtabi 2-toifali ingliz tili o'qituvchisi*

*Telefon raqami:+998944203103 ; +998944023103*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni ingliz tili darslari orqali rivojlantirish yoritib berilgan.Maqolaning boshlanish qismida ushbu ko'nikmaning asosiy mohiyati,uning yosh bolalar ongiga ta'siri,tanqidiy fikrlash nega muhimligi haqida fikr-mulohaza yuritilgan.O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari keltirilgan.Tanqidiy fikrlash tushunchasi va uning ta'lif tizimidagi roli ham yetarlicha o'rganilgan.Ushbu maqola yosh tadqiqotchilar va mustaqil izlanuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Metod, malaka, bilim, tanqidiy fikrlash, erkin fikrlash, tahlil qilish, intilish, mohiyat, usullar, zamonaviy hayot, ta'lif-tarbiya, amaliyat.

**Аннотация:** В данной статье освещается развитие критического мышления у учащихся посредством уроков английского языка. Во введении статьи рассматривается основная суть этого навыка, его влияние на сознание детей, а также обсуждается, почему критическое мышление является важным. Приведены основы развития критического мышления у учащихся. Понятие критического мышления и его роль в системе образования также достаточно изучены. Эта статья может быть полезна для молодых исследователей и независимых соискателей.

**Ключевые слова:** Метод, навык, знание, критическое мышление, свободное мышление, анализ, стремление, сущность, методы, современная жизнь, образование, практика.

**Abstract:** This article elucidates the development of critical thinking in students through English language lessons. The introductory part of the article discusses the fundamental essence of this skill, its impact on the minds of young children, and why critical thinking is crucial. The foundations for developing critical thinking in students are presented. The concept of critical thinking and its role in the education system have also been sufficiently explored. This article may be beneficial for young researchers and independent scholars.

**Keywords:** Method, skill, knowledge, critical thinking, free thinking, analysis, aspiration, essence, methods, modern life, education, practice.

## KIRISH

Bugungi zamonaviy hayotda barkamol va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash dolzarb masala bo'lib,ta'lim-tarbiya jarayonida bilim berishni takomillashtirish,o'quvchilar bilan ishlashning yangi metodlarini ishlab chiqish va noan'anaviylikka intilishni talab qiladi.Shunga asosan,turli yoshdagi o'quvchilarni fikrlash,izlanish va aniq maqsad sari intilib sog'lom ong ostida bilim olish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ta'lim-tarbiya berishda metodlarning xilma-xil bo'lishi talab etiladi.Ana shunday yangi texnologiyalardan biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish hisoblanadi.Kichik yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash orqali ,mustaqil,erkin fikrlay olish,tahlil qilish,taqqoslash,fikrlarni izohlash,baxslashish,o'z g'oyalarini himoya qilish va yangiliklarga intilish kabi malakalari bilan birga,mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati,dunyoqarashi,o'z-o'zini anglash kommunikativ savodxonligi,go'zallik va nafosatni his etib,undan zavqlana olish,aqlan va jismonan sog'lom bo'lish,milliy urf-odatlarni o'ziga singdirish va qadrlash kabi muhim sifatlarni rivojlantiradi.<sup>i</sup> Ayniqsa,xorijiy tillarni o'qitishda tanqidiy fikrlash ahamiyati beqiyos bo'lib,hozirgi paytda o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni oshirish chet tili o'qituvchilarining vazifalaridan biridir.

**O'quvchilarda ushbu ko'nikmani rivojlantirish quyidagi asoslarga tayanadi:**

- 1.O'qish jarayoni tezligini yaxshilash;
- 2.O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish;
- 3.Egallangan ilmlarni doimiy takrorlash;
- 4.O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- 5.Amaliyot orqali o'rganish;
- 6.Ikki tomonlama fikr almashinuvni tashkil etish;
- 7.O'qish jarayonini to'g'ri tashkil etish;
- 8.O'quvchilarga o'rganish jarayonini yengillashtirish;
- 9.O'quv jarayonini baholashdan iboratdir.

Biz ushbu maqolada tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlarini ko'rib chiqdik.Endigi navbatda,uning mohiyati va ta'limdagi o'rniga e'tiborimizni qaratamiz.

### **Tanqidiy fikrlashning mohiyati va uning ta'lim tizimidagi ahamiyati**

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish-insonning chuqur va oqilona fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish jarayoni hisoblanadi.Bu jarayon bir necha qobiliyatlarni tahlil qiladi:

### **-Tahlil qilish qobiliyatি**

Ushbu qobiliyat ma'lumotlarni to'plash, ularni mantiqiy tartibga solish va mavzu mohiyatini anglashdan iborat.

### **-Baholash qobiliyatি**

Bu qobiliyat turli xil ma'lumotlar orasidagi farqni anglash, ularga nisbatan o'z shaxsiy qarashlarini ifodalashni bildiradi.

### **-Muammolarni hal qilish qobiliyatি**

Bu turdagи qobiliyat ijodiy samarali yondashuv orqali yechimlarni izlash va qaror qabul qilishni anglatadi.

Bugungi kunda tahliliy fikrlash shaxsiy rivojlanish uchun ham, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, turli xil yoshdagi bolalar uchun ushbu ko'nikma mustaqil bilim olish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik usullari ham mavjud. Bu o'z o'rnida uning ta'limdagi o'rnini ham yoritib beradi.

### **Tanqidiy fikrlashning pedagogik usullari**

Bilamizki, pedagogik usullar ushbu ko'nikmani rivojlantirishda yetakchi rolni o'ynaydi. Biz maqolada eng samarali uslublarga to'xtalamiz.

<**Sokratik seminarlar**-o'quvchilarni o'z fikrlarini to'g'ri asoslashga, o'zini va boshqalarning qarashlarini baholashga va bir-birlarining fikr-mulohazalariga tanqidiy yondashishga yordam beradi.

<**Bahs-munozaralar**-munozaralar orqali o'quvchilar muayyan masalalar bo'yicha turli qarashlarni o'rganadi va o'z nuqtai nazarini himoya qiladi.

<**Muammoli ta'lim-bu** jarayonda o'quvchilar real hayotdagi jumboqli masalalarni hal qilishda mustaqil fikr yuritishni va ijodiy yondashishni o'rganadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda texnologilarning roli ham beqiyos. Misol uchun: onlayn platformalar, mobil ilovalar va interaktiv vositalar, VR va AR texnologiyalaridan foydalanish o'rinnlidir.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatি, bir tomonдан faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi gaplari yodimizga tushadi: "Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". O'sib kelayotgan o'quvchi yoshlарimizda ham davlatimiz rahbari aytganlaridek, tanqidiy tahlilni yoshligidan o'rgatib boradigan bo'lsak, biz o'ylaymizki, ushbu o'quvchi-yoshlар kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishib chiqadi.

Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli - tumanligini pedagoglar tushungan hamda qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash yakka-yu

yagona to‘g‘ri javobni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqarilgan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashga olib boradigan tugallangan yo‘l ham yo‘q. Lekin tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan uslub va yondashuvlar mavjud. Biz ularni yuqorida keltirib o’tdik.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg’ulotlardan dars jarayonida keng foydalanish –o’quv tajribasini o’z o’quvchilariga taqdim etishlari uchun o’qituvchidan yuksak mahoratni talab etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://jdpu.uz/ingliz-tili-darslarida-oquvchilarning-tanqidiy-fikrlash-konikmalarini-rivojlantirish/>
2. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics/article/download/5278/5234/15174>
3. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/35796/22880/37075>